BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Abduxamidova Shabnam Xayrulla qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi yo’nalishi
M.PNT-AU-26-guruh 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoniga qo‘yilayotgan talablar, bo‘lajak o‘qituvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish zaruriyati tahlil qilingan. Shuningdek, kasbiy kompetensiyaning mazmuni, uning tarkibiy qismlari hamda oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak pedagog, kasbiy kompetensiya, pedagogik kompetensiya, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik mahorat, pedagogik faoliyat, ta’lim texnologiyalari, oliy ta’lim.*

Abstract: *This article addresses the issue of developing the professional competence of future teachers. The requirements imposed on the training of pedagogical personnel in the modern education system and the necessity of combining the theoretical knowledge of future teachers with practical skills are analyzed. The content of professional competence, its components, as well as the pedagogical conditions that contribute to the development of the professional training of future teachers in the higher education process are also considered.*

Keywords: *future teacher, professional competence, pedagogical competence, professional training, pedagogical mastery, pedagogical activity, educational technologies, higher education.*

Аннотация: *В данной статье освещается вопрос развития профессиональной компетентности будущих педагогов. Проанализированы требования, предъявляемые к процессу подготовки педагогических кадров в современной системе образования, а также необходимость сочетания теоретических знаний будущих учителей с практическими навыками. Также*

рассмотрены содержание профессиональной компетентности, ее структурные компоненты, а также педагогические условия, способствующие развитию профессиональной подготовки будущих педагогов в процессе высшего образования.

Ключевые слова: *будущий педагог, профессиональная компетентность, педагогическая компетентность, профессиональная подготовка, педагогическое мастерство, педагогическая деятельность, образовательные технологии, высшее образование.*

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga ham yangi talablarni qo‘ymoqda. Ta’lim jarayonining samaradorligi, avvalo, pedagogning bilim darajasi, kasbiy tayyorgarligi, pedagogik mahorati va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalana olish qobiliyatiga bog‘liq. Zamonaviy pedagogdan faqatgina o‘z fanini yaxshi bilish emas, balki ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, mustaqil fikrlashga yo‘naltirish, pedagogik vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish kabi kasbiy kompetensiyalar ham talab etiladi. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish hamda pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy talablarga muvofiq tayyorlash davlat ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasiga oid qonunlari, davlat konsepsiyalari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim tizimining asosiy prinsiplari, ta’lim oluvchilarning huquq va majburiyatlari, ta’lim tashkilotlari faoliyati hamda ta’lim sifatini ta’minlashga oid muhim me’yorlar belgilangan.[1] Ushbu huquqiy asos bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish uchun muhim metodologik zamin yaratadi.

ASOSIY QISM

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kasbiy kompetensiya pedagogning nazariy bilimlarni egallashi bilan bir qatorda, ularni amaliy faoliyatda samarali qo‘llay olishiga xizmat qiladi. Kasbiy kompetentlik esa o'qituvchida kopmetensiyani amalga oshirish uchun mavjud nazariy bilimlarni shakillantirib beradi. Pedagog G. Djurayevaning fikricha, kasbiy kompetentlik va kompetensiya

bu – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olish qobiliyatidir. [3] Bo’lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalari uning nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llay olishi, ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etishi va pedagogik muammolarni hal qila olishida namoyon bo‘ladi. N.N. Azizxo‘jayeva pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat masalalarini yoritish jarayonida o‘qituvchining pedagogik faoliyati, pedagogik qobiliyatlari, pedagogik munosabatlari va pedagogik madaniyatiga alohida e’tibor qaratadi.[2] Mazkur jihatlar bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning muhim tarkibiy asoslari sifatida qaralishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik bilimlarni egallash, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash, shuningdek, kommunikativ, tashkilotchilik va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Iryna Serhiivna Markusning **“Pedagogical Conditions of Formation of Professional Competence of Future Teachers of Technologies by Means of Multimedia Technologies”** maqolasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining pedagogik shart- sharotilarni shakllantirish uchun quyidagi shartlarni ko‘rsatadi:

- amaliy mashg‘ulotlarda pedagogik, didaktik va metodik topshiriqlarni bajarish;
- muammoli xarakterdagi ta’lim loyihalaridan foydalanish;
- innovatsion va interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llash;
- ta’lim jarayonini real kasbiy faoliyatga yaqinlashtirish;
- talabalarning **mustaqil ishlarini kuchaytirish;**
- interaktiv muloqot sharoitida kasbiy muammolarni hal qilish;
- axborot-kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish. [4]

Yuqorida keltirilgan pedagoglarning ilmiy ishlaridagi qarashlaridan kelib chiqib, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini samarali rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish mumkin:

Birinchidan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish. Talaba pedagogika, psixologiya va o‘qitish metodikasi bo‘yicha olgan bilimlarini amaliy topshiriqlar orqali mustahkamlashi kerak;

Ikkinchidan, pedagogik amaliyotning samaradorligini oshirish. Talaba real ta’lim jarayonini kuzatishi, darslarni tahlil qilishi va mustaqil ravishda pedagogik faoliyatni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim;

Uchinchidan, interfaol va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Bunday metodlar talabalarni faol ishtirok etishga, mustaqil fikrlashga va o‘z nuqtayi nazarini asoslashga undaydi;

To‘rtinchidan, mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish. Bo‘lajak pedagog muntazam ravishda ilmiy va pedagogik adabiyotlarni o‘rganishi, yangi pedagogik yondashuvlar bilan tanishib borishi zarur;

Beshinchidan, pedagogik muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish. O‘qituvchi o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qila olishi uning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy oliy ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Pedagogning kasbiy kompetensiyasi uning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, pedagogik mahorati, kommunikativ qobiliyati va mustaqil fikrlash qobiliyatining uyg‘unligi asosida shakllanadi. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun nazariy va amaliy ta’limning uzviyligini ta’minlash, pedagogik amaliyot samaradorligini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, mustaqil ta’lim va ijodiy faoliyatni rivojlantirish zarur. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarda o‘z faoliyatini tahlil qilish, pedagogik vaziyatlarga mustaqil yechim topish va o‘z ustida muntazam ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatining samaradorligini oshiradi. Demak, oliy ta’lim jarayonida yaratiladigan maqbul pedagogik shart-sharoitlar bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi

Tavsiyalar:

Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni tashkil etish mumkin:

1. Kasbiy motivatsiyani rivojlantirish.
2. Pedagogik amaliyotni faol va tahliliy tarzda tashkil etish.
3. Muammoli va amaliy pedagogik vaziyatlardan foydalanish.
4. Talabaning mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu shart-sharoitlarning o‘zaro uyg‘unligi bo‘lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni

2. Azizxo'jayeva N.N “Pedagogika texnologiyalar va pedagogik mahorat.” O'quv qo'llanma. -Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti ,2006.-160b

3. G.Djurayeva dotsent “Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish” o‘quv-uslubiy majmua:. Toshkent – 2024 . 100b (14-15,40-41bet).

4. Markus I.S. “Pedagogical conditions of formation of professional competence of future teachers of technologies by means of multimedia technologies”. Collection of Research Papers “Pedagogical Sciences”. – 2021. – №94. DOI: 10.32999/ksu2413-1865/2021-94-13.

5. Ziyodullo Abdullayevich Mardonovning “Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda modul texnologiyalarini takomillashtirish” mavzusidagi PhD dissertatsiyasi avtoreferati (2019). https://api.ziyonet.uz/uploads/books/251467/5df31dcfde2d2.pdf

6. https://www.ps.journal.kspu.edu/index.php/ps/en/article/view/3474